

# **Ilmiy maqolalarni qabul qilish muddati 25 sentyabrgacha uzaytirildi**

Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan Xalqaro jurnalda chop etilgan maqolalar sifatida tan olinadigan Xalqaro konferensiyaga ilmiy maqolalarni qabul qilish muddati 25 sentyabrgacha uzaytirildi. Ilmiy maqolalarni chop etish mutlaqo bepul bo'lib, Erasmus+ DSinGIS loyihasi tomonidan moliyalashtiriladi. Batafsil ma'lumotni quyidagi axborot xatidan olishingiz mumkin:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti**

**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

**Toshkent arxitektura va qurilish instituti**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

**Obuda universiteti (OU), Vengriya**

**Paris Lodron universiteti (PLUS), Zalsburg, Avstriya**

**Qirollik texnologiya universiteti, Stokholm, Shvetsiya**

**Leybnits O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti  
(IAMO), Germaniya**

## **AXBOROT XATI**

**Hurmatli hamkasblar!**

**"Geoaxborot tizimi (GAT) texnologiyasi sohasini rivojlantirishning dolzARB muammolari va yechimlari"** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensianing tashkiliy qo'mitasi Sizni 2019 yil 22-23 oktyabr kunlari Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida bo'lib o'tadigan konferentsiyada ishtirok etishga taklif etadi.

Anjumanda geoaxborot va uning tarmoq sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishdagi mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalar o'zlari bajarayotgan va amalga tadbiq etilishi kutilayotgan innovatsion ishlanmalari, kashfiyotlari, ixtirolari hamda yangi ilg'or g'oyalarni o'zida mujassam etgan maqola, ma'ruza va tezislari bilan ishtirok etishlari mumkin.

### **Konferensianing ilmiy-amaliy yo'nalishlari:**

- ta'lim tizimida geoaxborot texnologiyalari hamda ushbu soha bo'yicha ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalalari;
- arxitektura va qurilish sohalarida geoinformatikani qo'llash muammolari;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, irrigatsiya, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishda

- geoinformatika;
- geodeziya, geologiya, geofizika, geografiya, kartografiya va kadastr tizimida geoinformatika;
  - GAT-kartografiyani rivojlantirishning dolzARB muammolari;
  - aerokosmik usullar va geoinformatika;
  - ekologiya, tabiiy resurslar va foydali qazilmalarni boshqarishda geoinformatika;
  - geoinformatikani xalq xo'jaligining boshqa sohalariga qo'llash imkoniyatlari.

### **Ilmiy maqolalar uchun qo'yiladigan talablar:**

1. Konferensiya taqdim etilayotgan maqolalar matni o'zbek, rus yoki ingliz tillarida **IMRAD** (<https://ru.wikipedia.org/wiki/IMRAD>) strukturasidagi talablar asosida yozilgan bo'lib, hajmi 5 betdan kam bo'lmasligi lozim.
2. O'zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiyaning mavjudligi.
3. O'zbek, rus va ingliz tillarida kalit so'zlarining mavjudligi (kamida 5 ta).
4. Foydalaniqan adabiyotlar va manbalar keltirilishi shart.
5. Matn Microsoft Word dasturida (Times New Roman, 14 shrift, 1,5 interval, manbalar ro'yxati matnda eslatma tartibida raqamlandi, matndagi havolalar to'rtburchak qavs bilan ajratilishi kerak [1,2-bet]. Tasvirlar rangli yoki oq-qora variantda tayyorlanadi.
6. Ilmiy maqolaga soha mutaxassisining taqrizi.

Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchlilikiga mualliflar shaxsan javobgardirlar. Magistrantlar va iqtidorli talabalarning maqolalari ilmiy rahbarlar tavsiyasi asosida qabul qilinadi.

Konferensiya materiallari DSinGIS loyihasining veb sahifalariga joylashtiriladi ([www.dsingis.eu  
http://geoinformatics.uz/dsingis/](http://www.dsingis.eu http://geoinformatics.uz/dsingis/)). Yuqori sifatga ega tanlab olingan maqolalar Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining "Me'morchilik va qurilish muammolari" ilmiy texnik jurnalida chop etiladi. Mazkur jurnal Respublika Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, unda chop etilgan konferensiya maqolalari **xalqaro maqolalar sifatida tan olinadi**. Konferensiya ishtiroy etish uchun maqolalarni yuqoridagi talablarga muvofiq tayyorlab, 2018 yil 25 sentyabrgacha tashkiliy qo'mitaga yuborishingizni so'raymiz.

**Maqolalarni topshirish muddati: 2019 yil 25 sentyabr**

***Ma'ruza matnlarini jihozlash namunasi***

### **FAZOVİY TAHLİL VA MODELLASHTIRISH**

**Niyazov V.R. (14 kegel)**

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Samarqand, O'zbekiston.  
niyazov\_v@gmail.com (12 kegel)

**Annotatsiya:** matn (12 kegel)

**Kalit so'zlar:** matn (12 kegel)

**Matn (14 kegel)**

**Adabiyotlar ro'yxati: (14 kegel)**

1. Aslanov A.F. Metakartografiya. Osnovnie problemi. - Tbilisi.: Mitsniyereba, 2017. -125 s. (12 kegel)

2. <https://ru.woshrnfjg/rettgfps>

Ma'ruza materiallarini konferensiya ishi boshlanishiga qadar nashr qilish rejalashtirilgan.

**Tashkiliy qo'mita konferensiya mavzusiga va talablariga javob bermaydigan maqolalarni yoki belgilangan muddatdan keyin kelgan maqolalarni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.**

**Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi tashkiliy qo'mita a'zolariga murojaat qilishingiz mumkin:**

1. Niyazov Voxid, tel.: 99897-923-16-08, 99866-234-62-48, e-mail: vohid85-85@mail.ru
2. Xushvaqtov Usmon, tel.: 99893-355-19-31, 99366-237-18-47, e-mail: usmon-xx@mail.ru

**Tashkiliy qo'mita manzili:**

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti. 140147, Samarqand sh., Lolazor ko'chasi 4, Ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi. Telefon: 99366-237-18-47, faks 99366-237-26-30